

MAS’ULIYAT HISSINING PSIXOLOGIK OMILLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-632-636>

A.Y. Yusuvaliyeva

*O‘zbekiston Milliy Universiteti dotsenti,
psixol.f.b.f.d. (PhD),
+998995327338*

adiba1804@gmail.com

Islamova Gulnoza Mamadali qizi

*O‘zbekiston Milliy Universiteti 1-kurs magistranti
+998933079418*

gulnozarahmatullayeva106@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi shaxsda mas’uliyat hissining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillar hamda ularning yosh davrlariga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Mas’uliyat hissi shaxsning ijtimoiy moslashuvi, faoliyatga ongli munosabati va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olish qobiliyatida muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: mas’uliyat hissi, psixologik omillar, yosh xususiyatlari, ijtimoiy nazorat, motivatsiya, shaxs rivoji.

Annotation: This thesis analyzes the main psychological factors influencing the formation of a sense of responsibility in an individual, as well as their age-specific characteristics. A sense of responsibility plays an important role in an individual’s social adaptation, conscious attitude toward activities, and the ability to control one’s own behavior.

Keywords: sense of responsibility, psychological factors, age characteristics, social control, motivation, personality development.

Аннотация: В данной тезисе анализируются основные психологические факторы, влияющие на формирование чувства ответственности у личности, а также их возрастные особенности. Чувство ответственности занимает важное место в социальной адаптации личности, осознанном отношении к деятельности и способности контролировать собственное поведение.

Ключевые слова: чувство ответственности, психологические факторы, возрастные особенности, социальный контроль, мотивация, развитие личности.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilar va talabalarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlash, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham hissi haqida chuqur malumotlarga ega bo‘lish va uni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mas’uliyat hissi shaxsning o‘z xatti-harakatlari, qabul qilgan qarorlari va ularning oqibatlarini anglab yetishi hamda ular uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga tayyorligini ifodalovchi muhim psixologik sifat hisoblanadi. Ushbu sifat shaxs taraqqiyoti jarayonida bir qator psixologik omillar ta’sirida shakllanadi. Mas’uliyat insonning o‘z vazifalariga, majburiyatlariga ongli ravishda yondashishini ifodalovchi muhim psixologik xususiyatlardan biridir. Avvalo, mas’uliyat hissining shakllanishida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari muhim o‘rin tutadi. Xarakter, iroda sifatleri,

o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati, qat’iyatlilik va vijdonlilik kabi jihatlar shaxsning mas’uliyatli xulq-atvorini belgilaydi. O‘ziga ishonchi baland, emotsional jihatdan barqaror shaxslar o‘z zimmasiga vazifalarni olishga va ularni oxirigacha bajarishga moyil bo‘ladilar. Ushbu maqolada mas’uliyat hissini shakllantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinadi va ularning yoshga oid xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Mas’uliyat - insonning o‘z harakatlari va qarorlariga nisbatan javobgarlik hissini anglash darajasi bo‘lib, shaxsning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishi, o‘z menligini topishi, jamiyat oldidagi burchlarini bajarishi va o‘z maqsadlariga yetishi uchun zarur bo‘lgan muhim fazilatlardan biridir. Mas’uliyat hissi shaxsning ijtimoiy va psixologik yetukligini ifodalovchi muhim sifatlardan biridir. Mas’uliyat hissiga ijtimoiy-psixologik omillar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Oila muhiti, tarbiya uslubi, ota-onaning shaxsiy namunasi, talabchanlik darajasi hamda qo‘llab-quvvatlashi shaxsda mas’uliyat hissining shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, ta’lim muassasalari, tengdoshlar jamoasi va ijtimoiy munosabatlar tizimi shaxsning ijtimoiy rollarni ongli ravishda bajarishiga ta’sir etadi.

Kognitiv omillar ham mas’uliyat hissining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shaxsning o‘z harakatlarining oqibatlarini oldindan baholay olishi, vaziyatni tahlil qilishi, reja tuzishi va qaror qabul qilishi mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi. Refleksiya, ya’ni shaxsning o‘z xatti-harakatlarini tahlil qila olish qobiliyati mas’uliyat hissining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Motivatsion omillar mas’uliyat hissining ichki mexanizmini tashkil etadi. Agar shaxs faoliyatni ichki qiziqish, o‘zini rivojlantirish va shaxsiy qadriyatlar asosida amalga oshirsa, mas’uliyat hissi barqaror va mustaqil bo‘ladi. Aksincha, faqat tashqi rag‘bat yoki jazodan qochish bilan bog‘liq motivatsiya mas’uliyatning yuzaki shakllanishiga olib keladi.

Shuningdek, emotsional-irodaviy omillar, xususan, stressga chidamlilik, impulsivlik darajasi va qaror qabul qilishdagi qat’iyatlilik ham mas’uliyat hissiga ta’sir ko‘rsatadi. Emotsiyalarini boshqara oladigan shaxslar murakkab vaziyatlarda ham mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladilar.

Mas’uliyat inson shaxsiyatining asosiy fazilatlardan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy taraqqiyot va kasbiy faoliyatda muhim rol o‘ynaydi. Mas’uliyatning shakllanishi va namoyon bo‘lishi temperament bilan ham bevosita bog‘liqdir. Temperament insonning tug‘ma psixofiziologik xususiyatlarini ifodalaydi va shaxsning emotsional reaksiyalari, harakat uslubi, qaror qabul qilish jarayoni hamda ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatini belgilaydi.

Temperament va mas’uliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik. Temperament mas’uliyatni tushunish, his qilish va unga yondashish usuliga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Psixologiya fanida temperamentning to‘rtta klassik turi ajratiladi: xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik. Har bir temperament turi mas’uliyatni o‘ziga xos uslubda namoyon qiladi.

Xolerik temperamentga ega insonlar kuchli energiya, qat’iyat va tezkorlik bilan ajralib turadi. Ular tezda qaror qabul qiladi va tashabbus ko‘rsatishga moyil

bo'ladilar. Mas'uliyat xoleriklar uchun muhim qadriyat bo'lib, ular yetakchilik vazifalarini bajarishga tayyor bo'ladilar. Biroq, ularning tezkorligi va emotsional keskinligi ba'zan mas'uliyatni izchil va barqaror bajarishga to'sqinlik qilishi mumkin. Xolerik shaxslar o'zlarining impulsivligini nazorat qila olsalar, mas'uliyatni yanada samarali amalga oshira oladilar.

Sangviniklar esa ijtimoiy faollik va optimizm bilan ajralib turadi. Ular mas'uliyatli vazifalarni qiziqish va ishtiyoq bilan bajarishga moyil, lekin uzoq muddatli va muntazam e'tibor talab qiladigan vaziyatlarda diqqatni yo'qotishi mumkin. Sangviniklar uchun mas'uliyatni his qilish ko'pincha tashqi motivatsiyaga bog'liq bo'ladi: agar muhit ularga doimiy rag'bat bersa, ular o'z burchlarini samarali bajaradilar. Shuning uchun, sangviniklarning mas'uliyat darajasi ko'pincha tashqi omillarga bog'liq bo'lib, ularni ichki intizom bilan mustahkamlash muhimdir.

Flegmatiklar mas'uliyatni chuqur his qiladigan, izchil va bardoshli insonlar hisoblanadi. Ular o'z majburiyatlarini bajarishda barqarorlik va ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Flegmatik shaxslar qiyin sharoitlarda ham o'z majburiyatlarini sustkashlik qilmasdan, puxta va aniq bajaradilar. Ularning sust harakatchanligi ba'zan tezkor qarorlar talab qiladigan vaziyatlarda to'sqinlik qilishi mumkin, lekin mas'uliyatli va ishonchli shaxs sifatida ularning roli muhimdir.

Melanxoliklar esa sezgir va chuqur tahlil qilishga moyil bo'lib, mas'uliyatni ichki tajribalar asosida qabul qiladilar. Ular juda ehtiyotkor bo'lib, berilgan vazifalarni chuqur anglab, kamchiliklardan qochishga harakat qiladilar. Biroq, ortiqcha tashvish va o'ziga ishonchsizlik melanxoliklarning mas'uliyatni bajarishda kechikishiga yoki qo'rquv hissi sababli faoliyatdan chekinishiga olib kelishi mumkin. Agar melanxoliklar o'zlarining ishonchsizligini bartaraf eta olsalar, ular chuqur mas'uliyatli va puxta ish yurituvchi shaxslarga aylanishlari mumkin.

Temperament va mas'uliyatning psixologik asoslari. G. Ollport shaxsiyatni individual xususiyatlar yig'indisi sifatida ko'rib chiqib, mas'uliyat temperament bilan bog'liq holda shakllanishini ta'kidlagan. Uning fikricha, insonning tug'ma temperament xususiyatlari mas'uliyatni qanday tushunishi va unga qanday munosabatda bo'lishini belgilaydi.

Shuningdek, mas'uliyat hissining namoyon bo'lishi yosh davrlariga qarab farqlanadi. Bolalik davrida (6–10 yosh) mas'uliyat asosan tashqi nazorat va kattalar talablari orqali shakllanadi. O'smirlik davrida (11–17 yosh) mas'uliyat hissi beqaror bo'lib, emotsional holatlar va tengdoshlar fikri ustun ahamiyat kasb etadi. Ilk yetuklik davrida (18–23 yosh) esa mas'uliyat hissi ichki nazorat, mustaqil qaror qabul qilish va shaxsiy hayotiy maqsadlar bilan chambarchas bog'lanadi.

Talabalik davri (18–23 yosh) mas'uliyat hissining faol shakllanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda kasbiy yo'nalish, ijtimoiy rollar va shaxsiy mustaqillikning ortishi mas'uliyat hissining mustahkamlanishiga olib keladi. Shu sababli mazkur yosh davrida mas'uliyat hissini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Mas'uliyat hissi shaxsning o'z xatti-harakatlari, qarorlari va faoliyati natijalari uchun javobgarlikni ongli ravishda his etishi va

qabul qilishi bilan tavsiflanadigan murakkab psixologik hodisadir. Psixologiya fanida mas’uliyat hissi shaxsning axloqiy yetukligi, ijtimoiy moslashuvi hamda ichki nazorat mexanizmlarining rivojlanganlik darajasini ifodalaydi.

L. S. Vigotskiy mas’uliyat hissini shaxsning ijtimoiy tajribani ichkilashtirish natijasida shakllanadigan sifat sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, dastlab tashqi nazorat shaklida namoyon bo’lgan javobgarlik keyinchalik ichki psixik tuzilma o’z-o’zini boshqarish mexanizmiga aylanadi. A.N. Leontyev faoliyat nazariyasida mas’uliyatni shaxs faoliyatining maqsadga yo’naltirilganligi va motivlar tizimi bilan bog’laydi. Bizningcha esa mas’uliyat bu ijtimoiy psixologik hodisa bo’lib, u ichki va tashqi lokus nazorat ostida doimiy ravishda insonda shakllanib boruvchi psixologik xususiyatdir. Ichki lokus nazoratga ega bo’lgan shaxslarda mas’uliyat hissi yuqori bo’lib, ular faoliyat natijalarini o’z harakatlari bilan bog’laydilar. Tashqi lokus nazorat esa javobgarlikni tashqi sharoitlarga yuklash bilan xarakterlanadi, ya’ni ular o’zlaridagi har qanday mas’uliyatni oilasi, do’stlari yoki boshqa shaxslarga yuklaydilar. Bundan tashqari mas’uliyat hissi shaxsning ijtimoiy normalar, axloqiy qadriyatlar va shaxsiy e’tiqodlar asosida shakllanib, irodaviy barqarorlik, mustaqillik va ongli tanlov qilish qobiliyatini namoyon etadi.

Mas’uliyat hissining rivojlanishi bir qator psixologik omillar ta’sirida yuzaga keladi. Ularni shartli ravishda ichki (shaxsiy) va tashqi (ijtimoiy) omillarga ajratish mumkin.

Ichki psixologik omillar:

- Motivatsiya va ehtiyojlar tizimi – shaxsning faoliyatga ongli munosabati va natijaga javobgarlikni his etishiga asos bo’ladi;
- Irodaviy sifatlar (qat’iyat, sabr-toqat, o’zini tuta bilish);
- O’z-o’zini nazorat qilish va refleksiya – xatti-harakatlarni baholash va tahlil qilish qobiliyati;
- Shaxsning lokus-nazorati (J. Rotter) – ichki nazoratga ega shaxslarda mas’uliyat hissi yuqoriroq bo’ladi;
- Qadriyatlar va e’tiqodlar tizimi.

Tashqi psixologik omillar:

- oiladagi tarbiya uslubi;
- pedagogik ta’sir va ta’lim muhiti;
- ijtimoiy talablar va rollar;
- tengdoshlar guruhi ta’siri;
- madaniy va axloqiy me’yorlar.

Ushbu omillar o’zaro uyg’unlashgan holda mas’uliyat hissining shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mas’uliyat hissi ko’p qirrali psixologik hodisa bo’lib, u shaxsning individual xususiyatlari, ijtimoiy muhit va ongli faoliyati o’zaro uyg’unlashuvi natijasida shakllanadi. Ushbu omillarning barqaror rivoji shaxsda yuksak mas’uliyat hissining qaror topishiga xizmat qiladi. Mas’uliyat hissi shaxs rivojining muhim tarkibiy qismi bo’lib, u psixologik omillar va yosh xususiyatlari bilan uzviy bog’liqdir. Har bir yosh davriga xos psixologik mexanizmlarni hisobga

olish mas’uliyat hissini shakllantirish va rivojlantirishda samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov, A. (2019). Shaxsiy mas’uliyat va uning psixologik omillari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Yo‘ldoshev, S. (2021). Talabalarda shaxsiy o‘shish va mas’uliyat hissining shakllanishi. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.
3. Karimova, D. (2018). Ta’lim jarayonida talabalar motivatsiyasini oshirish va javobgarlik hissini rivojlantirish.
4. Bandura, A. (1997). Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W.H. Freeman and Company.
5. Xolbekov M. Psixologiyada shaxs mas’uliyati tushunchasining nazariy asoslari. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2019.
6. Qodirov N. Motivatsiya va mas’uliyat psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2021.